2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 159.9:796.01:378.14



Rasulov Zokir Pardayevich,
O‘zbekiston davlat sport akademiyasining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARIDA KASBIY KOMPETENTLIK RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI: FAKTORLI TAHLIL NATIJALARI

Annotatsiya. Sport psixologini kasbiy tayyorlashda nazariy bilimning o‘zi yetarli emas, mutaxassisning emotsional o‘zini boshqarishi, muloqot uslubi, mas’uliyatli qaror qabul qilishi, refleksivligi va kasbiy identifikatsiyasi amaliy faoliyat sifatiga bevosita daxldor. Ushbu maqolaning maqsadi bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlik rivojlanishiga aloqador individual-psixologik ko‘rsatkichlarning faktorli tuzilishini aniqlash va ularning kasbiy mazmunini talqin qilishdan iborat. Empirik dasturda psixodiagnostik so‘rovnomalardan foydalanilgan, mazkur maqolada R. Kettellning 16PF shaxs so‘rovnomasi hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan faktor matritsasi tahlil qilindi. Natijalar 14 ta psixologik ko‘rsatkichning 6 ta omil atrofida guruhlanishini ko‘rsatdi. Birinchi omilda emotsional-irodaviy o‘zini boshqarish, ikkinchisida kommunikativ faollik va mas’uliyatli mustaqillik, uchinchisida ijtimoiy yetuklik va xulqiy nazorat yetakchi mazmun kasb etdi. Keyingi omillarda zo‘riqishni boshqarish, faoliyat avtonomiyasi, safarbarlik, o‘ziga ishonch va psixologik mustaqillik ko‘rsatkichlari ajralib chiqdi. Olingan natijalar kasbiy kompetentlikni faqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsiy resurslar, refleksiya va amaliy tajriba bilan bog‘liq integrativ tuzilma sifatida ko‘rish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak sport psixologlari, kasbiy kompetentlik, faktorli tahlil, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, kasbiy identifikatsiya, o‘zini nazorat qilish, stressga chidamlilik.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПОРТИВНЫХ ПСИХОЛОГОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ФАКТОРНОГО АНАЛИЗА

Аннотация. Профессиональная подготовка спортивного психолога не может ограничиваться усвоением теоретических знаний: качество практической деятельности связано с эмоциональной саморегуляцией, коммуникативными умениями, ответственностью, рефлексивностью и профессиональной идентичностью специалиста. Цель исследования – выявить факторную структуру индивидуально-психологических показателей, связанных с развитием профессиональной компетентности будущих спортивных психологов, и дать им содержательную профессиональную интерпретацию. В эмпирической программе использовался комплекс психодиагностических опросников; в данной статье проанализирована факторная матрица показателей 16PF Р. Кеттелла и профессионально значимых качеств. Четырнадцать психологических показателей сгруппировались вокруг шести факторов. В первом факторе ведущим содержанием выступили эмоционально-волевая саморегуляция, во втором – коммуникативная активность и ответственная самостоятельность, в третьем – социальная зрелость и поведенческий контроль. Последующие факторы отражают управление напряжением, автономность деятельности, мобилизацию, уверенность в себе и психологическую самостоятельность. Результаты подтверждают необходимость рассматривать профессиональную компетентность как интегративную систему, в которой знания и практические навыки опираются на личностные ресурсы, рефлексию и опыт профессионального взаимодействия.

Ключевые слова: будущие спортивные психологи, профессиональная компетентность, факторный анализ, эмоциональная устойчивость, коммуникативная компетентность, рефлексия, профессиональная идентичность, самоконтроль, стрессоустойчивость.

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE AMONG FUTURE SPORT PSYCHOLOGISTS: RESULTS OF FACTOR ANALYSIS

Abstract. Professional preparation in sport psychology cannot be reduced to the acquisition of theoretical knowledge. The quality of applied work also depends on emotional self-regulation, communication, responsible decision-making, reflective capacity, and professional identity. The purpose of this study was to identify the factor structure of individual psychological indicators associated with the development of professional competence in future sport psychologists and to

interpret their professional meaning. The empirical programme included a set of psychodiagnostic questionnaires; the present paper focuses on the factor matrix derived from R. Cattell's 16PF personality indicators and professionally relevant qualities. Fourteen psychological indicators were organized around six factors. The first factor was dominated by emotional-volitional self-regulation, the second by communicative activity and responsible autonomy, and the third by social maturity and behavioural control. The remaining factors reflected tension management, functional autonomy, mobilization, self-confidence, and psychological independence. The findings support an integrative understanding of professional competence in which knowledge and practical skills are supported by personal resources, reflection, and experience in professional interaction.

Keywords: future sport psychologists, professional competence, factor analysis, emotional stability, communicative competence, reflection, professional identity, self-control, stress resilience.

Kirish. Sport psixologining kasbiy faoliyati yuqori darajadagi noaniqlik, vaqt bosimi va emotsional zo‘riqish bilan kechadigan vaziyatlarda amalga oshadi. Mutaxassis sportchining individual psixologik xususiyatlarini baholashi, murabbiy va jamoa bilan professional muloqot o‘rnatishi, musobaqa oldi va musobaqadan keyingi holatlarni psixologik jihatdan boshqarishi, zarur vaziyatda esa o‘z vakolati chegarasini to‘g‘ri belgilashi lozim. Shu sababli kasbiy kompetentlikni faqat nazariy bilim yoki alohida amaliy ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida talqin qilish yetarli emas. U bilim, kasbiy tafakkur, refleksiya, etik mas’uliyat, kommunikativ madaniyat, emotsional o‘zini boshqarish va faoliyat tajribasining o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalliy va mintaqaviy adabiyotlarda sport psixologining kasbiy tayyorgarligi motivatsion, kognitiv, emotsional, kommunikativ hamda refleksiv tarkibiy qismlar birligi orqali izohlanadi [1; 2; 3]. Biroq zamonaviy xalqaro adabiyotlarda mazkur masala yanada kengroq qo‘yilib, kompetent mutaxassisning shakllanishi kasbiy rivojlanishning bosqichma-bosqich jarayoni sifatida ko‘rilmoqda. Quartiroli, Fogaça va Wagstaff sport psixologlarini tayyorlashda kompetentlik, etika va mutaxassisning kasbiy farovonligini bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan yo‘nalishlar deb ko‘rsatadi [5, 349–371-b.]. Fogaça, Quartiroli va Wagstaff tomonidan o‘tkazilgan tizimli sharhda esa sport psixologlarining professional rivojlanishi «amaliyot orqali o‘rganish», refleksiya, superviziya va kasbiy aloqalar orqali qo‘llab-quvvatlanishi aniqlangan [6].

Kasbiy identifikatsiya ham ushbu tizimning markaziy bo‘g‘inlaridan biridir. Xalqaro Delphi tadqiqotida sport psixologi professional identifikatsiyasi mutaxassisning kasbga mansublik va kasbiy muhitga moslikni anglatuvchi professional o‘zlik konsepsiyasi sifatida izohlangan [7]. Bu yondashuv bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash jarayonida «nima biladi?» degan savol bilan bir qatorda

«kasbiy vaziyatda qanday fikrlaydi, muloqot qiladi, o‘zini boshqaradi va qarorini qanday asoslaydi?» degan savollarni ham markazga olib chiqadi.

Amaliy sport psixologiyasi bo‘yicha xalqaro standartlar ham xuddi shunday yo‘nalishni ko‘rsatadi. FEPSAC sertifikatsiya mezonlarida maxsus nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda hujjatlashtirilgan amaliyot, superviziya, madaniy kompetentlik va etik me’yorlarga rioya qilish alohida talab sifatida belgilangan [10]. AASP standartlarida esa kasbiy etika, sport psixologiyasi, sport fanlari, yordam beruvchi munosabatlar, tadqiqot metodlari va statistika, psixologik asoslar hamda xilma-xillik va madaniyat bo‘yicha tayyorgarlik kompetent amaliyotning bilim bazasi sifatida ko‘rsatiladi [11]. Demak, shaxsiy psixologik resurslar kasbiy kompetentlikning o‘zi bilan aynanlashtirilmasligi, balki uni samarali namoyon etishga xizmat qiluvchi psixologik zamin sifatida o‘rganilishi metodologik jihatdan muhimdir.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlik bilan bog‘liq individual-psixologik xususiyatlarning qanday tuzilishga ega ekanini empirik ravishda aniqlash dolzarb masaladir. Mavjud tadqiqotlarda alohida motivatsion yoki kommunikativ sifatlar ko‘p yoritilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro bog‘lanib, latent omillar ko‘rinishida qanday guruhlanishi mahalliy sport ta’limi kontekstida yetarlicha tahlil qilinmagan. Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak sport psixologlarining shaxsiy va kasbiy ahamiyatli xususiyatlari bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlarni faktorli tahlil asosida tizimlashtirish, yetakchi psixologik omillarni ajratish va ularning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi mazmunini ilmiy jihatdan sharhlash.

Metodologiya. Tadqiqot empirik-psixodiagnostik yondashuv asosida tashkil etilgan. Dastlabki tadqiqot dasturida kommunikativ tolerantlik, kasbiy ahamiyatli shaxs xususiyatlari, stressli vaziyatlarda koping-xulq, hayotiy chidamlilik va shaxsning individual-tipologik xususiyatlarini baholashga qaratilgan metodikalardan foydalanilgan. Jumladan, V.V. Boykoning kommunikativ tolerantlik metodikasi, kasbiy ahamiyatli sifatlarni aniqlash so‘rovnomasi, T.L. Kryukovaning stressli vaziyatlarda koping-xulqni baholash yondashuvi, S. Maddining hayotiy chidamlilik konsepsiyasiga asoslangan test hamda R. Kettellning 16PF shaxs so‘rovnomasi qo‘llangan.

Mazkur maqolada kasbiy kompetentlikning shaxsiy-psixologik asoslarini yaxlit ko‘rsatish maqsadida R. Kettell shkalalari va kasbiy ahamiyatli sifatlar bo‘yicha tuzilgan faktor matritsasi markaziy tahlil obyekti sifatida olindi. 16PF shaxsning normal diapazondagi individual farqlarini ko‘p o‘lchovli baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, uning faktor-analitik tabiatiga oid zamonaviy tavsiflar metodikaning shaxs tuzilmasini differensial baholashdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi [4, 135–159-b.].

Tahlil matritsasida 14 ta psixologik ko‘rsatkich 6 ta faktor bo‘yicha taqsimlangan. Faktor yuklamalarini mazmuniy talqin qilishda ularning absolyut kattaligi asosiy mezon sifatida olindi; |0,50| va undan yuqori yuklamalar omil

tuzilmasining yetakchi ko‘rsatkichlari sifatida ajratildi. Ikki qutbli shkalalarda musbat yoki manfiy ishora sifatning «ijobiy» yoki «salbiy»ligini emas, balki o‘sha faktor bilan bog‘lanish yo‘nalishini bildiradi. Shu bois natijalar shkalalarning semantik qutblari va kasbiy faoliyat mantig‘i bilan birgalikda sharhlandi.

Faktorli tahlil natijalarini talqin etishda kasbiy kompetentlik va shaxs xususiyatlari o‘rtasida metodologik farq saqlandi: aniqlangan faktorlar kompetentlikning to‘liq o‘lchovi emas, balki uni egallash va amaliyotda namoyon etishga yordam beruvchi individual-psixologik resurslar majmui sifatida ko‘rib chiqildi. Bunday yondashuv zamonaviy kasbiy rivojlanish tadqiqotlarida kompetentlikni bilim, tajriba, refleksiya, superviziya va professional identifikatsiyaning dinamik birligi sifatida talqin qilishga mos keladi [5; 6; 7].

Tadqiqot natijasi. Faktorli tahlil bo‘lajak sport psixologlarining shaxsiy va kasbiy ahamiyatli sifatlari o‘zaro alohida-alohida emas, balki bir necha psixologik tizimlar doirasida birikishini ko‘rsatdi. Quyidagi jadvalda dastlabki empirik matritsada keltirilgan yuklamalar tartiblangan holda berildi.

1-jadval

R. Kettell 16PF va kasbiy ahamiyatli sifatlar ko‘rsatkichlarining faktor yuklamalari

Shkalalar	1	2	3	4	5	6
Muloqotga moyillik	-0,102	-0,644	-0,236	0,464	0,199	0,058
Hissiy barqarorlik–beqarorlik	-0,643	0,040	0,481	0,036	-0,086	0,504
Hukmronlikka intilish–tobelik	0,550	-0,507	-0,230	-0,221	-0,121	-0,057
Ijtimoiy yetuklik–onglilik	0,220	-0,434	0,707	-0,011	-0,084	-0,223
Dadillik–tortinchoqlik	0,684	0,161	0,431	-0,331	0,482	0,003
Ishonuvchanlik–shubhalanish	0,615	-0,418	-0,152	-0,163	0,402	0,120
O‘ziga ishonch–ishonmaslik	0,086	-0,011	-0,023	0,498	0,232	0,712
Mustaqillik–tobelik	-0,515	0,526	-0,032	-0,553	0,547	0,518
O‘zini nazorat qilish	0,518	0,550	-0,535	0,174	-0,188	0,129
Zo‘riqish–bo‘shashish	0,172	-0,121	0,291	0,684	0,528	-0,237
Mas’uliyatlilik	0,196	0,539	0,483	-0,559	0,364	0,302
Jur’atlilik	0,120	0,548	-0,141	0,485	0,341	-0,543
Matonatlilik	0,533	0,247	0,459	0,287	-0,506	-0,523
Qat’iylik	-0,758	-0,005	-0,012	0,020	0,232	-0,198

Izoh. Talqinda |0,50| va undan yuqori yuklamalar yetakchi deb olindi. Manfiy ishora ikki qutbli shkaladagi bog‘lanish yo‘nalishini ko‘rsatadi, u sifatning kasbiy jihatdan salbiy ekanini anglatmaydi.

Birinchi faktor eng zich psixologik tuzilishga ega. Unda qat'iylik (0,758), dadillik (0,684), hissiy barqarorlik–beqarorlik (0,643), ishonuvchanlik–shubhalanish (0,615), hukmronlik–tobelik (0,550), matonatlilik (0,533), o'zini nazorat qilish (0,518) va mustaqillik–tobelik (0,515) yetakchi yuklamalarni bergan. Mazmunan bu omil murakkab vaziyatda o'z xatti-harakatini boshqarish, qat'iy pozitsiyani saqlash va emotsional-irodaviy safarbarlikni ta'minlash bilan bog'liq. Shu sababli u shartli ravishda «emotsional-irodaviy o'zini boshqarish» omili deb talqin qilindi.

Ikkinchi faktorda muloqotga moyillik (0,644), o'zini nazorat qilish (0,550), jur'atlilik (0,548), mas'uliyatlilik (0,539), mustaqillik (0,526) va hukmronlik–tobelik (0,507) bir tizimga birlashgan. Sport psixologining faoliyatida bu kombinatsiya suhbatni boshlash va davom ettirish, professional chegarani saqlash, mas'uliyatni zimmasiga olish hamda bosim ostida mustaqil harakat qilish qobiliyatlari bilan uyg'unlashadi. Omilga «kommunikativ faollik va mas'uliyatli mustaqillik» mazmuni berildi.

Uchinchi faktor ijtimoiy yetuklik–onglilik shkalasining 0,707 darajadagi yuklamasi bilan ajralib turadi; o'zini nazorat qilish shkalasi ham 0,535 yuklama bilan ushbu tuzilmaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Mas'uliyatlilik (0,483), hissiy barqarorlik–beqarorlik (0,481), matonatlilik (0,459) va dadillik (0,431) qo'shimcha mazmuniy fon hosil qiladi. Bu omil kasbiy vaziyatni ijtimoiy me'yorlar va oqibatlar nuqtai nazaridan baholash, xatti-harakatni nazorat qilish hamda yetuk professional pozitsiyani ushlab turish bilan bog'liq bo'lib, «ijtimoiy yetuklik va xulqiy nazorat» sifatida izohlandi.

To'rtinchi faktorda zo'riqish–bo'shashish (0,684), mas'uliyatlilik (0,559) va mustaqillik–tobelik (0,553) yuklamalari ustun. O'ziga ishonch (0,498), jur'atlilik (0,485) va muloqotga moyillik (0,464) ham ushbu omil mazmuniga yaqinlashadi. Bu tuzilma professional vaziyatda psixologik zo'riqish va faoliyat avtonomiyasi o'rtasidagi muvozanat masalasini ko'rsatadi. Sport psixologi tashqi talablar kuchaygan paytda ham vaziyatga berilib ketmasdan, mas'ul qarorni saqlashi kerak; demak, bu omilni «zo'riqishni boshqarish va faoliyat avtonomiyasi» deb atash mumkin.

Beshinchi faktorda mustaqillik–tobelik (0,547), zo'riqish–bo'shashish (0,528) va matonatlilik (|0,506|) salmoqli yuklamalarga ega. Dadillik–tortinchoqlik shkalasi ham 0,482 ko'rsatkich bilan omilga yaqin turadi. Ushbu kombinatsiya yuklama oshganda psixologik safarbarlikni, faol pozitsiyani va mustaqil xatti-harakatni saqlash qobiliyatini aks ettiradi. Shu bois omil «safarbarlik va mustaqil harakat» sifatida talqin qilindi.

Oltinchi faktorda o'ziga ishonch–ishonmaslik shkalasi 0,712 bilan eng yuqori yuklamani ko'rsatdi. Jur'atlilik (0,543), matonatlilik (0,523), mustaqillik–tobelik (0,518) va hissiy barqarorlik–beqarorlik (0,504) ham faktor tarkibiga sezilarli hissa qo'shgan. Mazkur omil o'z imkoniyatini real baholash, qarorning psixologik

mas'uliyatini ko'tara olish va murakkab vaziyatda ichki tayanchni saqlash bilan bog'liq. U «o'ziga ishonch va psixologik avtonomiya» deb nomlandi.

2-jadval

Ajratilgan faktorlarning mazmuniy talqini

Faktor	Shartli nomi	Yetakchi psixologik mazmun	Kasbiy ahamiyati
1	Emotsional-irodaviy o'zini boshqarish	Qat'iylik, dadillik, hissiy barqarorlik, nazorat, matonat	Bosim ostida barqaror qaror va o'zini boshqarish
2	Kommunikativ faollik va mas'uliyatli mustaqillik	Muloqot, nazorat, jur'at, mas'uliyat, mustaqillik	Sportchi, murabbiy va jamoa bilan ishonchli professional aloqa
3	Ijtimoiy yetuklik va xulqiy nazorat	Onglilik, o'zini nazorat, mas'uliyat, barqarorlik	Kasbiy me'yor va oqibatlarni hisobga olgan xatti-harakat
4	Zo'riqishni boshqarish va faoliyat avtonomiyasi	Zo'riqish, mustaqillik, mas'uliyat, o'ziga ishonch	Murakkab vaziyatda ishchi holat va avtonomiyani saqlash
5	Safarbarlik va mustaqil harakat	Mustaqillik, zo'riqish, matonat, dadillik	Tez o'zgaruvchi sharoitda faol pozitsiyani ushlab turish
6	O'ziga ishonch va psixologik avtonomiya	O'ziga ishonch, mustaqillik, matonat, hissiy barqarorlik	Kasbiy qaror uchun ichki tayanch va javobgarlik

Muhokama. Olingan natijalarning eng muhim jihati shundaki, bo'lajak sport psixologining kasbiy tayyorgarligini bitta «kuchli» shaxs sifatiga bog'lab bo'lmaydi. Faktorlar tarkibida muloqot, o'zini nazorat qilish, mas'uliyat, mustaqillik, hissiy barqarorlik va o'ziga ishonch turli kombinatsiyalarda qayta-qayta uchraydi. Bu holat kasbiy kompetentlikning tizimli tabiatini ko'rsatadi: bir vaziyatda zarur bo'lgan kommunikativ ochiqlik boshqa vaziyatda xulqiy nazorat va chegarani saqlash bilan muvozanatlashishi kerak, qat'iylik esa empatiya yoki refleksiyadan ajralgan holda professional samaradorlikni kafolatlamaydi.

Mazkur natija zamonaviy professional rivojlanish konsepsiyalari bilan uyg'un. Fogaça va hamkorlarining 34 ta sifatli tadqiqotni umumlashtirgan tizimli sharhida sport psixologlari rivojlanishi bir necha bosqichda kechishi, ushbu jarayonning muhim mexanizmlari sifatida refleksiya, superviziya, amaliyot orqali o'rganish va kasbiy aloqalar ajratilgani ko'rsatilgan [6]. Demak, bizning faktor matritsamizda

ajralgan o‘zini nazorat qilish, mustaqillik va o‘ziga ishonch kabi sifatlarni «tayyor» kompetentlik deb emas, balki tajriba va refleksiya orqali kasbiy kompetentlikka aylantiriladigan psixologik resurslar deb ko‘rish ilmiy jihatdan asosliroqdir.

Ikkinchi va uchinchi faktorlarning mazmuni, ayniqsa, kommunikativ va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli. Sport psixologining ta’siri ko‘pincha metodikaning o‘zidan ko‘ra, professional munosabat qanday qurilgani, savolning qanday berilgani, tinglash va qayta aloqa sifati bilan belgilanadi. Moffat va McCarthy refleksiv amaliyotda mutaxassisning «nima qilgani» bilan birga «qanday qilgani» va «nega aynan shunday qilgani»ni tahlil qilishni professional rivojlanishning muhim vositasi sifatida ko‘rsatadi [8, 70–81-b.]. Shuning uchun muloqotga moyillikning o‘zini nazorat, mas’uliyat va mustaqillik bilan bir faktor doirasida birikishi sport psixologi uchun funksional jihatdan mantiqiy ko‘rinadi.

Oltinchi faktorda o‘ziga ishonchning yuqori yuklama bilan ajralishi kasbiy identifikatsiya muammosi bilan ham bog‘lanadi. Quartiroli va Wagstaffning xalqaro Delphi tadqiqotida sport psixologi professional identifikatsiyasi kasbga mansublik hissi va professional muhitga moslikni o‘z ichiga olishi ko‘rsatilgan [7]. Mualliflarning boshqa tizimli sharhida professional identifikatsiya etik faoliyat, kasbiy rolni anglash va barqaror professional rivojlanish bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi [9, 264–290-b.]. Shunday ekan, o‘ziga ishonchni shunchaki subyektiv «dadillik» bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas; u kasbiy bilim, rol aniqligi va amaliy tajriba bilan mustahkamlanganda konstruktiv resursga aylanadi.

Tadqiqot natijalari kasbiy ta’lim metodikasiga ham bevosita taalluqlidir. Nazariy kurslar, psixodiagnostika bo‘yicha mashg‘ulotlar va alohida treninglar bir-biridan uzilgan holda tashkil etilsa, kompetentlikning integrativ tabiati yetarli rivojlanmaydi. Zamonaviy tadqiqotlar superviziya bo‘lajak mutaxassisning dalillarga asoslangan qaror qabul qilishini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda [12, 200–210-b.]. Shu sababli sport psixologlarini tayyorlashda real yoki modellashtirilgan keyslar, psixologik intervyu, yozma refleksiv hisobot, supervizion muhokama va dalillarga tayangan qaror asosini izohlash kabi faol metodlar tizimli qo‘llanishi lozim.

Natijalarning qo‘llanish chegarasi ham aniq belgilanishi kerak. Faktorli model shaxs xususiyatlarining ichki tuzilishini ko‘rsatadi, biroq u kasbiy samaradorlikka sababiy ta’sirni o‘z-o‘zidan isbotlamaydi. Bundan tashqari, faktor tuzilmasining barqarorligini boshqa tanlanmalarda tekshirish, kelgusida KMO va Bartlett mezonlari, ajratib olingan dispersiya ulushi, faktorlarni ajratish hamda aylantirish usullarini to‘liq hisobot qilish maqsadga muvofiq. Longityud kuzatuvlar esa ta’lim jarayoni davomida ushbu psixologik resurslarning qaysilari o‘zgaruvchan, qaysilari esa nisbatan barqaror ekanini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikning psixologik zaminini ko‘p omilli tuzilma sifatida tavsiflash mumkinligini ko‘rsatdi. Faktorli matritsada emotsional-irodaviy o‘zini boshqarish, kommunikativ faollik va mas’uliyatli mustaqillik, ijtimoiy yetuklik va xulqiy

nazorat, zo‘riqishni boshqarish va faoliyat avtonomiyasi, safarbarlik hamda o‘ziga ishonch bilan bog‘liq psixologik birliklar ajralib chiqdi.

Ilmiy jihatdan muhim xulosa shuki, ushbu xususiyatlarni kasbiy kompetentlikning o‘zi bilan tenglashtirish emas, balki uning shakllanishini ta’minlovchi shaxsiy resurslar sifatida ko‘rish lozim. Kasbiy kompetentlik mazkur resurslar nazariy bilim, etik me’yorlar, refleksiya, superviziya va real amaliy tajriba bilan integratsiyalashganda barqaror professional sifatga aylanadi.

Amaliy taklif sifatida sport psixologlarini tayyorlash dasturlarida psixodiagnostik bilimlarni kommunikativ trening, emotsional o‘zini boshqarish, keys tahlili, professional refleksiya va superviziya bilan yagona modul mantiqida bog‘lash maqsadga muvofiq. Talabalarning kasbiy rivojlanishini faqat yakuniy nazorat bilan emas, boshlang‘ich, oraliq va yakuniy bosqichlarda takroriy psixologik monitoring orqali baholash individual rivojlanish trayektoriyalarini belgilashga yordam beradi.

Keyingi tadqiqotlarda faktor modelini turli kurs, yosh va amaliy tajriba guruhlarida qayta tekshirish, faktor ballarini kasbiy motivatsiya, refleksiya, koping strategiyalari va amaliy faoliyat samaradorligi bilan bog‘lash bo‘lajak sport psixologlari kompetentligining yanada to‘liq psixologik modelini yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арзикулов Д.Н., Гаппаров З.Г., Вахабова Д.Б. Психология и психология спорта. Ташкент: УзДЖТИ, 2014. 67 с.

2. Елисеев С.А., Журин Н.В., Журина Т.Н. Профессиография практикующего психолога в спортивной деятельности // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. 2016. № 10 (140). С. 242–246.

3. Тиунова О.В. Разработка и реализация многоуровневой системы повышения квалификации по спортивной психологии // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. 2017. № 3 (145). С. 223–228.

4. Cattell H.E.P., Mead A.D. The Sixteen Personality Factor Questionnaire (16PF) // Boyle G.J., Matthews G., Saklofske D.H. (eds.). The SAGE Handbook of Personality Theory and Assessment. Vol. 2: Personality Measurement and Testing. Thousand Oaks: SAGE, 2008. P. 135–159. DOI: 10.4135/9781849200479.n7.

5. Quartiroli A., Fogaça J.L., Wagstaff C.R.D. Professional training and development: The bedrock of ethical, competent, and sustainable sport psychology // Journal of Applied Sport Psychology. 2023. Vol. 35, No. 3. P. 349–371. DOI: 10.1080/10413200.2022.2043485.

6. Fogaça J.L., Quartiroli A., Wagstaff C.R.D. Professional development of sport psychology practitioners: From systematic review to a model of development // Psychology of Sport and Exercise. 2024. Vol. 70. Article 102550. DOI: 10.1016/j.psychsport.2023.102550.

7. Quartiroli A., Wagstaff C.R.D. Practitioners in search of an identity: A Delphi study of sport psychology professional identity // Psychology of Sport and Exercise. 2024. Vol. 71. Article 102567. DOI: 10.1016/j.psychsport.2023.102567.

8. Moffat Z.L., McCarthy P.J. Process Reports in Applied Sport Psychology: A Tool for Professional Development // Journal of Sport Psychology in Action. 2024. Vol. 15, No. 2. P. 70–81. DOI: 10.1080/21520704.2023.2195813.

9. Quartiroli A., Wagstaff C.R.D., Martin D.R.F., Tod D. A systematic review of professional identity in sport psychology // International Review of Sport and Exercise Psychology. 2024. Vol. 17, No. 1. P. 264–290. DOI: 10.1080/1750984X.2021.1998577.

10. European Federation of Sport Psychology (FEPSAC). Certification Criteria: Specialist in Applied Sport Psychology. Available at: https://fepsac.com/certification/certification-criteria/ (accessed 19.09.2026).

11. Association for Applied Sport Psychology (AASP). Certification Program Candidate Handbook. Updated July 2026. Available at: https://appliedsportpsych.org/certification/certification-program-candidate-handbook/ (accessed 19.09.2026).

12. Winter M.E., Freeman P., Griffin M., Soundy A., Maynard I. Experiences of Developing Evidence-Informed Decision-Making Competence in Trainee Sport Psychology Practitioners: Supervisor and Supervisee Perspectives // The Sport Psychologist. 2025. Vol. 39, No. 3. P. 200–210. DOI: 10.1123/tsp.2024-0058.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694